

ADABIYOTDA HUDHUD OBRAZI POETIKASI

Moxichehra Muxammadiyeva

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

E-mail: muhammadiyevamohichexra@gmail.com

Tel: (90) 9035878

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14415111>

Qushlar obrazining adabiyotga kirib kelishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ularning adabiyotdagi dastlabki tasvirlari yunon va rim mifologiyasida uchraydi. Keyingi asrlar davomida qushlar obrazi tasavvufiy, psixologik va falsafiy ma’no kasb etib bordi va adabiyotda faol qo’llanila boshlandi. Hudhud obrazining kelib chiqishi Qur’oni karimning “Naml” surasiga borib taqaladi. Ushbu surada payg’ambarlardan Muso, Solih, Lut alayhis-salomlar zikr qilinadi, xususan, Dovud va Sulaymon payg’ambarlar haqida batafsil to’xtalib, Sulaymon alayhis-salom Alloh taoloning payg’ambari bo’lishi bilan birga, jamiyki insu-jin va parranda-yu darranda olamiga podshoh qilingani to’g’risida hikoya qilinadi. Unda hudhud qushining Sulaymon alayhis-salom va Saba’ o’lkasi malikasi Bilqiys o’rtasidagi vositachiligi keltirib o’tilgan. Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy” asarida Sulaymon alayhissalom haqidagi qissada hudhud obrazi tasvirlanadi. Qissadan uning zakovati, omonatdorligi, ma’lumotni yetkazishdagi farosati, tavidga harisligi ma’lum bo’ladi. O’sha qissada Hudhud Saba’ mamlakati, o’sha mamlakatga bir ayol malikalik qilishi, malika o’z qavmi bilan Quyoshga sig’inayotgani haqida xabar keltiradi. Sulaymon alayhissalom Hudhud orqali o’sha malikaga bir maktub yuboradilar. Maktubda *“Bismillahir rohmanir rohiym. Menga qarshi bosh ko’tarmay, taslim bo’lgan holingizda keeling”* deb yozilgan edi. Maktubni o’qigan malika o’z ayonlari bilan maslahatlashadi. Ayonlar unga istagan ishini qilishini, nima deb buyruq bersa, ular shunga rozi bo’lishlarini aytadilar. Malika Sulaymon alayhissalomga hadya yuborib, natijasi nima bo’lishini kutadi. Elchi Sulaymon alayhissalomning huzurlariga kelganida, u zot: *“Sizlar menga mol-dunyo ila madad bermoqchimisiz?! Bas, Alloh menga bergan narsa sizga bergan narsadan yaxshidir. Ammo sizlar hadyalarangiz bilan quvonursiz. (Ey elchi!) Sen ularga qaytib bor. Bas, albatta, Biz ular bas kela olmaydigan qo’shin ila borurmiz va u yerdan ularni xoru zor hollarida chiqarurmiz”* deyдилar. Keyin malika Sulaymon alayhissalomning oldilariga qo’shini bilan kelishga qaror qiladi. Malika kelgunicha uning Saba’dagi taxti o’zidan oldin olib kelib qo’yiladi. U kelib taxtini ko’radi-da “Xuddi o’shaning o’zi” deydi. Keyin unga saroyga kirishi aytilganda, u billurdan silliq qilib yasalgan saroyga kiradi va *“Ey Robbim, albatta, men o’zimga zulm qilib yurgan ekanman, Sulaymon ila olamlarning Robbi – Allohga musulmon bo’ldim!”* deb aytadi. Shu tariqa Hudhud bir mamlakat aholisining musulmon bo’lishiga sababchi bo’ladi.

Hudhud obrazini “Lison ut-tayr” yo’nalishidagi dostonlarga fors tasavvuf adabiyotining yetakchi vakili Farididdin Attor o’zining “Mantiq ut-tayr”iga markaziy qahramon sifatida olib kirdi: “Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishga qo’shgan ulushini belgilovchi omillardan yana biri dostonda Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning yetakchi qahramonlaridan biri bo’lib, asarda tasvir etilgan barcha voqea-hodisalar bevosita uning faoliyati bilan bog’liq holda berilgan... Attor hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur’onda mavjud (XXVII sura 20

oyat) ayrim tasavvurlarga asoslanadi¹. Mumtoz adabiyotda Attorga javob tarzida yozilgan ilk turkiy doston turk adibi Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”i hisoblanadi. Doston 1317-yilda yaratilgan. Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”da ham hudhud – qushlar yo’lboshchisi timsolida gavdalanadi. Muallif ushbu dostonida hudhudni aql timsoli, deb baholaydi². 1499- yilda Navoiy “Mantiq ut-tayr” ga javob tarzida “Lison ut-tayr” dostonini bitadi. Dostonida hudhud obrazi markaziy qahramon vazifasini bajaradi va qushlarni to’g’ri yo’lga boshlovchi, ularga pand-nasihat qiluvchi shayx, pirning allergik obrazi sifatida ifodalanadi. Keyinchalik, hudhud obrazi Farididdin Attor, Gulshahriy va Alisher Navoiy an’anasini davom ettirgan Mavlono Xo’ja Qozi Payvandiy Rizoiyning “Qush tili” va Salohiyning “Bul va gulgul” dostonida epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. XVIII asrning boshida yashab ijod etgan Muhammadniyoz Nishotiy o’zining “Qushlar munozarasi” asarida hudhud qushini markaziy obraz sifatida tasvirlaydi. Asar allegorik – majoziy xarakterga ega bo’lib, 14 ta qushning o’zaro bahs-munozarasi tasvirlangan. Asarda hudhud bahsli vaziyatda yechim beruvchi donishmand insonlarning ramzi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida ham sovchilik uchun yo’lga chiqqan Ko’rqushga maslahat bergan donishmandlik va donolikning ramzi sifatida tasvirlanadi. Ibn Sirin (r.a)ning aytishicha, tushdagi hudhud dono va ziyrak odam bo’lib, maxfiy ishlardan odamlarga xabar beradi. Tushida hudhud(sassiqpopishak)ni tutib olganini yoki biron unga berganini ko’rsa, aytilgan sifatda dono va ulug’ bir kishi bilan suhbatdosh bo’lishiga va undan ilm hosil qilishiga dalildir. Tushida sassiqpopishakni o’ldirganini ko’rsa, dono va ulug’ kishi ustida zafar topishi va uni yengishiga dalildir. Tushida uning go’shtini yeganini ko’rsa, uning miqdoricha o’z ajalidan harom mol topishiga dalildir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tabiatan ham bu qushlar o’ta ziyrak va vafodor hisoblanishadi. Ular tozaliksevar qush bo’lib, u ko’proq pokiza, turli zaharli kimyoviy gazlar va moddalardan xoli bo’lgan hududlarda yashashni yoqtiradi. Hudhud vafodor qushki, biror joyda ovqat yoki suv topsa, urg’ochisini chaqiradi. Ovqatni bir o’zi yemay, jufti bilan yeydi. Agar juftini topa olmasa, sayragancha uni qidirib yuradi. Agar jufti vafot etsa, har gal uni eslaganda, sayrab, xotirlaydi. Jufti bilan birga uchgan makonlariga boradi. Boshqa urg’ochi bilan juftlashmay, umrining oxirigacha sayrab yuradi. Turli xil zararkundalarni yeb, tabiatga va insonlarga foyda keltirishadi. Shuning uchun adabiyotda ham donishmandlik, yo’lboshchilik, ziyraklik ramzini ifodalaydi.

References:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 4 tomlik. Fozilov E.I. tahriri ostida.– Toshkent: Fan, 1983.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi’ ul-bidoya – Toshkent: Fan, 1987. – 724 b.
3. Sharipov Sharofiddin. “Lison ut-tayr” dostonining genezesi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Toshkent. Fan . 1982. B 60
4. Valixo’jayev Botir. O’zbek epik poeziyasi tarixidan. T.: Fan. 1974

¹ Sharipov Sharofiddin. “Lison ut-tayr” dostonining genezesi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Toshkent. Fan . 1982. B 60

² Sharipov Sharofiddin. “Lison ut-tayr” dostonining genezesi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Toshkent. Fan . 1982. B 166